



## ONA TILINI O'QITISHDA GRAMMATIKANI O'RGANMAY TURIB, SAVODXONLIKKA ERISHA OLMAYMIZ.

**Bozorova Mamlakat Mirodilayevna**

*Namangan viloyati Davlatobod tumani*

*72-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov aytganidek, Ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliylar. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i lozim. Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir. Har bir o'quvchi ona tili fanini o'rganishda grammatikani o'zlashtirishsagina savodxonlikka erisha oladi deb o'yilman.

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, grammatika, madaniyatni shaklanishi, orfografik xatolar, yozish san'ati, tafakkur, til qonun va qoidalari.


**KIRISH** Bugungi kunda to'g'ri yozish savodxonlik asosi hisoblanadi. Madaniyatimizning shakillanishida ham u muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biz mакtabda Ona tili fanidan olgan bilimlarimizni hayotimiz davomida yanada mustahkamlab, takomillashtirib boramiz. Shuningdek, kun davomida kitob mutolaasi, ziyoli insonlar bilan suhbatlar, ommaviy axborot vositalaridagi har bir chiqish — xoh u axborot, xoh kinofilmlar ko'rinishida bo'lsin nutqimizning ravonligi va badiyilagini, yozuv savodxonligimizni charxlab boradi. Grammatik va orfografik xatolar bizni obro'sizlantiruvchi omillardan biri ekanini unutmasligimiz kerak. Shu nuqtai nazaridan imlo qoidalari mukammal va chuqur egallashimiz, har bir so'z turkumiga oid grammatik belgilarni puxta bilishimiz lozim.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Grammatika" termini yunoncha grammatika so'zidan olingan bo'lib, "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Dastlab u yozuv tilini tekshirish bilan shug'ullangan. Bora-bora grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo'limgan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi avvalgicha qolgan. Shunday qilib, grammatika terminining ma'nosini kengayib, mavhumlahshib, tilshunoslik fanining bir tildagi so'z tuzilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishini o'rganadigan katta manbara aylanadi.

Grammatika odatda ilmning nomi sifatida til qonunlarini, til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlari, til taraqqiyoti jarayonida bo'ladigan turli o'zgarishlar, hodisalarini nazariy o'rganib to'g'ri yoritadi. Bular esa tilni amaliy jihatdan o'rganishga katta yordam beradi.

Har bir tilning asosi uning fonetik tizimi, leksikasi va grammatikasıdır. Grammatika vositasida kishilar o'z fikrlarini gap orqali ifodalaydylar. Gap, odatda,





bir-biri bilan o'zaro bog'langan so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Demak, yakka holdagi so'zlar ayrim ma'nolarni ifodalay olsa ham, nutqda o'zaro chambarchas bog'langan holda qo'llaniladi.

### NATIJALAR

O'rganilayotgan tilning grammatik tuzilishini shakllantirish deganda o'quvchilarga ona tilini o'rgatishda grammatik qoidalar alohida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan predmet hisoblanmaydi va uni bolalarga yod olish taklif etilmaydi. Qoidalarni amalda o'zlashtirib olish ko'nikmalari maxsus tashkil etilgan va o'quvchilarning o'rganilayotgan grammatik hodisa mohiyatini tushunib yetishlariga qaratilgan o'yin-mashqlarda shakllantiriladi. O'yindagi harakatlar ko'plikdagi ot ishtirok etgan fikrlarni tuzishdan iborat bo'lmos'i lozim. Bunda boshqa har qanday grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etishga intilish talab etiladi. O'quvchining minimal o'z fikrini aytishi ikki so'zdan iborat bo'lishi kerak.


### MUHOKAMA

Bugun zamon zayli bilan aksariyat insonlar hayotini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etolmaydi. Ayniqsa, Telegram, Instagram va Facebook ijtimoiy tarmoqlari yurtimiz aholisi o'rtasida keng ommalashgan. Ular orqali insonlar jamoatchilikka shaxsiy munosabatlarini bildirib borish, biror-bir holatni bayon etishiga odatlanishdi. Bir vaqtning o'zida o'nlab, yuzlab kishilar guruh bo'lib, bir-biri bilan audio va yozma xabarlar orqali muloqotga kirishadilar. Yozish jarayonida vaqtidan yutish uchun so'zlarni qisqartirib yoki harflardan noto'g'ri foydalanib, imlo qoidalarni buzib muloqot qiluvchilar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ana shunday paytlarda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi tilga hurmatsizlik qilayotganini yaxshi anglamaydi.

Reklama bu davr talabi. Shu sabab bugun shahar bo'ylab yurar ekanmiz, ko'chalarda turli-tuman reklama ummoniga duch kelamiz. E'lolar, do'kon va ma'muriy-maishiy binolar peshtoqidagi yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Ammo ayrim reklama yozuvlaridagi o'zbek tili me'yorlarining buzilishi, imlo xatoliklarga yo'l qo'yilishi ko'ngilni xira qiladi. Bunday imlo xatolar buyuk insonlar, adiblar sharafiga berilgan ko'chalar nomida, avtobus va metropoliten yozuvlarida ham mavjud. Hatto, ommaviy axborot vositalari, ya'ni televideniya titrlarida ham ko'zga tashlanib kelmoqda.

Bu kabi muammoni biz ayrim FXDYO bo'limlarida ham uchratishimiz mumkin. Sobiq tuzum davzida o'zbek ismlarining aksariyati Tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarda imlo xatolar bilan yozilar edi, afsuski, bu kabi xatolar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bu esa kelajakda shaxsning pasportiga, diplomiga va boshqa shaxsiy xujjatiga ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yo'l qo'yilgan imlo xato tufayli familiya yoki ismdagi bu kamchilikni to'g'irlash esa ancha vaqt talab etadi. Zotan ism-sharif insonning ijtimoiy mavqeida muhim ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA





Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizning yozma nutqi va savodxonligida nuqsonlar serob. Xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq. Bugun ona tilimiz ko'proq e'tiborga muhtoj. Xatolarni tuzatish uchun har bir inson o'z ustida ishlashi, so'zni to'g'ri yozishi, tinish belgilarini o'rinni qo'llashi kerak.

O'yaymanki, har bir millatdoshimiz o'z ona tilimizdagи muloqotiga, nutqiga talabchanlik bilan qarasa, o'z ustida ishlasa, so'z boyligini boyitib borsa o'zbek tilining istiqboli porloq bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O. Azizov. "Tilshunoslikka kirish". 1996 yil.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
3. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.
4. <https://uz.denemetr.com/docs/51/index-84415.html>
5. <https://uz.denemetr.com/docs/51/index-84415.html>
6. <https://fayllar.org/mavzu-bolalarning-nutqini-ostirish-fanining-predmeti-maqsad-va.html?page=9>

